# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*
*III-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 12
**Soliyev Damirjon Nurmatovich**

BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIYAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI) ........ 18
**Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi**

SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI ........ 26
**Xatamov Ochildi Qurbonovich**

ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ........ 32
**PhD. Юлдашева С.Ш**

TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ........ 38
**Haydarova Dinora Atamurot qizi**

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ ........ 43
**Гоженко Борис Владимирович**

MOLIYAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDAN FOYDALANISH ........ 50
**Latipova Shaxnoza Maxmudovna**

XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI ........ 55
**Fazilat Esirgapovna Jomonqulova**
**Nizomov Murod**
**Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi**

MECHANISMS FOR THE FORMATION ANDDEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE ........ 58
**Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev**

BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH ........ 62
**R.I.Rashidov**
**A.N. Elmurodov**
**A.A. Muhiddinov**

TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS ........ 68
**Bokhodirov Boriykhon Boburovich**
**Bahromjon Urmanov**

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHIYATINI BOSHQARISH ........ 74
**Ergashova Nilufar Sobirovna**

DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR ........ 80
**Azizov Shohsuvor Yuldashevich**

VERTIKAL INTEGRATSIYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI ........ 84
**Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA “YASHIL EKOTIZIM” VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIYALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI ........ 90
**Do‘stqobilov Ulug‘bek Ibrohimovich**

TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR ........ 94
**Pardayeva Ozoda Mamayunusovna**

СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА ........ 100
**Маърупова Дилсора Абдулла кизи**

O‘ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING INSTITUTSIONAL SHART-SHAROITLARI ........ 105
**Qodirov Sardorbek Isroiljon o‘g‘li**

АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ ........ 113
**Усманова Зумрад Исламовна**
**Рахматуллаев Алижон**
**Сайфитдинов Азизжон**

G‘AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA’MINLASHDAGI O‘RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA) ........ 119
**Axadov Shahboz Shuxrat o‘g‘li**

ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТВЁРДЫМИ БЫТОВЫМИ ОТХОДАМИ В Г. ТАШКЕНТЕ: ОТ ПОЛИГОННОГО ЗАХОРОНЕНИЯ К РЕСУРСНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ........ 127
**Джусупов Кубанычбек**

STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI AXBOROT TA’MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 133
**Umidjon Kostayev**

DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS OBJECTORIENTED PROGRAMMING IN A VIRTUAL COLLABORATIVE ENVIRONMENT USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS ........ 140
**Saidova Dilfuza Ergashovna**

AUDIT SIFATI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 145
**Muydinov Erkin Jamaldinovich**

THE ROLE OF E-COMMERCE IN ECONOMIC DEVELOPMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN’S DIGITAL TRANSFORMATION ........ 152
**Shakhriddinova Sitora Tolibjon kizi**

THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN ........ 157
**Yorkin Ziyodullaev**
**Munisa Bekmirzaeva**

РОЛЬ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В ЗЕЛЕНОМ РОСТЕ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 166
**Мохамед Эйд Али Балбаа**
**Усманова Азиза Алишеровна**

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘LLARI ........ 173
**Shakirxodjaeva Zuxraxon Rustamxanovna**

BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTLARINI TUZISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 180
**Menglikulov Baxtiyor Yusupovich**

THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN ........ 184
Yorkin Ziyodullaev
Munisa Bekmirzaeva
TASTE OF PLACE: HOW LOCAL-INGREDIENT SOURCING AFFECTS GUEST SATISFACTION AND MENU PROFITABILITY IN HOTEL RESTAURANTS ........ 193
Bahodirova Durdona
Atametova Sevara
INTERACTIONS IN CREATIVE TOURISM: RESIDENTS' PERSPECTIVES IN UZBEKISTAN ........ 198
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna
Jasmin Raxmidinova
XO'JALIK YURITUVCHISUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI ........ 204
Bauyetdinov M.J.
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA MINTAQA TABIIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) ........ 212
Safarov Otabek Abduhamidovich
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING NAZARIY JIHATLARI ........ 218
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich
ТЕОРИИ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ........ 223
Убайдуллаева Мафтунахон Акмалхон кизи
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGI TAHLILI ........ 230
Xatamova Manzura Ochildiyevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

# SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGI TAHLILI

**Xatamova Manzura Ochildiyevna**
**Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**
**E-mail: manzuraxatamova1@gmail.com**
**ORCID: 0009-0005-8993-8242**

**Annotatsiya.** Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalardan foydalanish samaradorligi tuman (shahar)lar kesimida hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilingan. Investitsiyalarning hududiy va tarmoq tarkibi, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri hamda investitsiya resurslaridan foydalanish natijalari baholangan. Shuningdek, Surxondaryo viloyatida investitsiya faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan va joriy yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, markazlashgan investitsiyalar, markazlashmagan investitsiyalar, investitsiya manbalari, investitsion loyihalar, investitsiya samaradorligi, hududiy rivojlanish.

**Аннотация.** Проведён анализ эффективности использования инвестиций, привлекаемых в экономику Сурхандарьинской области, в разрезе районов (городов) и видов экономической деятельности. Оценены территориальная и отраслевая структура инвестиций, их влияние на социально-экономическое развитие региона, а также результаты использования инвестиционных ресурсов. Кроме того, освещены основные направления реформ, запланированных к реализации в текущем году с целью дальнейшего совершенствования инвестиционной деятельности в Сурхандарьинской области.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиции в основной капитал, централизованные инвестиции, децентрализованные инвестиции, источники инвестиций, инвестиционные проекты, эффективность инвестиций, региональное развитие.

**Abstract.** The efficiency of investment utilization in the economy of the Surkhandarya region is analyzed by districts (cities) and types of economic activity. The study evaluates the territorial and sectoral structure of investments, their impact on regional economic development, and the outcomes of investment resource utilization. In addition, the main directions of reforms planned for implementation during the current year to further improve investment activity in the Surkhandarya region are highlighted.

**Keywords:** investment, fixed capital investment, centralized investment, decentralized investment, investment sources, investment projects, investment efficiency, regional development.

## KIRISH

Hududlarni rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri investitsion faoliyatni takomillashtirish va uning o'sishini ta'minlovchi yangi mexanizmlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Hududlarda investitsion faoliyatni shakllantirish hamda chet ellik investorlarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish murakkab jarayon bo'lib, bu, ayniqsa, iqtisodiyoti rivojlanish bosqichida bo'lgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotining o'sishi, eng avvalo, chet el investitsiyalarini o'zlashtirish va zamonaviy texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi, progressiv hamda raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish asosida ta'minlanishi mumkin.

Tobora jadallashib borayotgan global iqtisodiyotda investitsiyalarga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik hamda investitsiyalar oqimining taraqqiy etgan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga yo'nalishi tendensiyalari kuzatilmoqda. Natijada rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi ortib bormoqda. Mamlakatimizda ham yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish maqsadida

iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, mazkur sohada mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish, investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va rentabelligini chuqurroq baholash hamda ularning samaradorligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qayd etilgan masalalarning samarali hal etilishi mamlakatning investitsion jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi [1].

## MAVZUGA OID ADAIYOTLAR SHARHI

Investitsiya masalalariga bag‘ishlangan nashrlar tahlili, bir tomondan, mintaqaning investitsiya tizimi bilan bog‘liq tushunchalarning xilma-xilligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, ularning umumqabul qilingan talqini mavjud emasligi turli tadqiqotchilar tomonidan olingan natijalarni umumlashtirish, samarali sintez qilish hamda mintaqa investitsiya tizimining asosiy xususiyatlari haqida yaxlit nazariy tushunchani shakllantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Bu esa olimlarning investitsiya tushunchasining iqtisodiy mazmunini turlicha talqin etishiga olib kelgan. Jumladan, Nobel mukofoti laureati U.F. Sharp: “Investitsiyalar kelgusida (ehtimol, noma’lum) boylik olishni ko‘zlab, hozirgi vaqtda ma’lum boylikdan voz kechishdir” [2], deb ta’kidlaydi.

Rossiyalik olimlar M.I. Rimer, A.D. Kasatov va N.N. Matienkolar U.F. Sharp fikriga yaqin holda investitsiyalarni “tadbirkorlik faoliyati obyektlariga mablag‘larni investitsiya qilish orqali ehtiyojlarni keyingi yillar davomida yanada to‘liq qondirish maqsadida ne’matlarning joriy iste’molidan voz kechishga qaratilgan harakat” sifatida e’tirof etadilar [3].

K.R. Makkonnell va S.L. Bryular: “Investitsiyalar moddiy zaxiralarning ko‘payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg‘arilishi va ishlab chiqarish xarajatlaridir”, degan fikrni ilgari suradilar [4].

B.A. Rayzberg, L.Sh. Lazovskiy va Ye.B. Starodubtsevlar esa: “Investitsiyalar davlatga qarashli yoki xususiy kapitalni o‘z mamlakatiga yoki chet elga daromad olish maqsadida turli tarmoqlar korxonalari, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar hamda investitsion loyihalarga uzoq muddatga joylashtirishdir” [5], deb ta’rif beradilar.

T. Kemenyning fikriga ko‘ra, “…jalb qilingan investitsiyalar mamlakatdagi texnik va texnologik yangilanishlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan birga, bilimlarni uzatishda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi” [6].

Yana bir guruh olimlar: “Investitsiyalar kapitalning shunday joylashtirilishiki, buning natijasida sarflangan kapital qiymatining saqlanishi yoki o‘sishi va daromadning ijobiy darajasi ta’minlanadi” [7], deb ta’kidlashsa, ayrim iqtisodchi olimlar: “Investitsiyalar – bu pulni saqlash yoki oshirish hamda daromad olishni ta’minlash maqsadida mablag‘larni joylashtirish mumkin bo‘lgan vositadir” [8], degan ta’rifni beradilar.

Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar: “Investitsiyalar iqtisodiy (foydali) va ijtimoiy samaralar olish maqsadida investitsiya obyektlariga qo‘yilgan barcha turdagi mulkiy va intellektual qadriyatlarni ifodalaydi” [9], deb ta’kidlaydilar.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan N. Xaydarov: “Investitsiya – bu investorlar (davlat, xo‘jalik subyektlari va jismoniy shaxslar)ning o‘z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarini iqtisodiy samara (tushum, daromad, foyda) olish uchun yo‘naltirilgan qiymatlar yig‘indisidir” [10], degan fikrni bildiradi.

Taniqli iqtisodchi olimlar D.G‘. G‘ozibekov va T.M. Qoralievlar investitsiyalarni “daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan hamda tadbirkorlik va ishbilarmonlikning davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar” [11], deb ta’riflaydilar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, omilli tahlil, deskriptiv tahlil, qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizning barcha hududlari singari Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga, ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, faoliyat ko‘rsatib turgan korxonalarni zamonaviy, energiya tejovchi texnologiyalar bilan qayta jihozlash, yaratilayotgan tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni diversifikatsiyalash hamda moliyaviy jihatdan zaif korxonalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularning aylanma va asosiy kapitaliga qo‘shimcha ravishda mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlari izchil davom ettirilmoqda [1](1-rasm).




**1-rasm. Surxondaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining o‘zgarishi**[1]

Ushbu rasm ma’lumotlariga ko‘ra, 2016–2025-yillar davomida Surxondaryo viloyatida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi izchil o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2016-yildagi 2142,4 mlrd so‘mlik ko‘rsatkich 2019-yilda 11835,1 mlrd so‘mga yetib, sezilarli darajada oshgan.

2020-yilda qisqa muddatli pasayish kuzatilib, investitsiyalar hajmi 10068,2 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsada, keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkich yana tiklanib, 2023-yilda 18307,7 mlrd so‘mga yetgan. 2025-yilda esa 22758,4 mlrd so‘m bilan eng yuqori darajaga erishilgan.

Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda investitsiyalar hajmining keskin oshishi hududda investitsion faollikning kuchayganligi va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining jadallashganligini ko‘rsatadi.




**2-rasm. 2025-yilda Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi**[2]

2025-yilda Surxondaryo viloyati iqtisodiyotining asosiy kapitaliga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar tarkibini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, hududiy investitsiya jarayonlarida sanoat va agrar sohalarni modernizatsiya qilishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, umumiy investitsiyalar hajmining eng salmoqli qismi, ya’ni 26,3 foizi bevosita ishlab chiqarish sanoati hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa viloyatda sanoatlashtirish darajasini oshirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga bo‘lgan intilishni ifodalaydi. Shu bilan birga, tog‘-kon sanoatining 15,1 foizlik ko‘rsatkichi hududiy tabiiy resurslarni o‘zlashtirish bo‘yicha investitsion jozibadorlikning barqarorligini tasdiqlaydi (2-rasm).

Surxondaryo viloyatining agrar-industrial salohiyatini mustahkamlash doirasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga

1 O‘zbekiston respublikasi Davlat Statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi
2 Surxonstat.uz – Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

19,0 foiz miqdorida xorijiy kapital jalb etilganligi kuzatiladi. Mazkur tendensiya agrar sektorda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksportbop mahsulotlar yetishtirish borasidagi strategik vazifalarning amaliy ifodasi hisoblanadi. Logistika va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yo‘nalishida esa tashish va saqlash xizmatlari (8,7 foiz) hamda sog‘liqni saqlash tizimi (4,3 foiz) kabi tarmoqlar o‘z ulushiga ega bo‘lib, bu holat hududda aholi turmush sifatini oshirish va iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, raqamli iqtisodiyot va kommunal infratuzilma segmentlarida, xususan, axborot va aloqa (0,6 foiz) hamda suv ta’minoti va kanalizatsiya (0,3 foiz) tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokining nisbatan pastligi mazkur yo‘nalishlarda investitsiya faoliyatini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Boshqa faoliyat turlari bo‘yicha qayd etilgan 23,2 foizlik ko‘rsatkich investitsiya oqimlarining diversifikatsiyalashganligini va iqtisodiyotning turli bo‘g‘inlarida kichik hamda o‘rta biznes loyihalarining faollashganligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, 2025-yildagi investitsion dinamika Surxondaryo viloyatining real sektor tarmoqlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, hududiy yalpi mahsulot o‘sishini ta’minlashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval

2025-yilda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar[3]

| Ko‘rsatkichlar nomi | Respublika bo‘yicha (jamiga nisbatan, %) | Viloyat bo‘yicha (jamiga nisbatan, %) |
|---|---|---|
| Markazlashgan investitsiyalar | 10,6 | 16,4 |
| – Respublika budjeti | 4,7 | 8,7 |
| – Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 0,4 | – |
| – O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar | 5,5 | 7,7 |
| Markazlashmagan investitsiyalar | 89,4 | 83,6 |
| – Korxona mablag‘lari | 15,3 | 10,9 |
| – Aholi mablag‘lari | 6,3 | 11,6 |
| – Xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar | 65,9 | 58,2 |
| Shundan: xorijiy investitsiyalar | 47,5 | 28,4 |
| – Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 1,9 | 2,9 |

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, 2025-yilda O‘zbekiston Respublikasi va Surxondaryo viloyati bo‘yicha asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiya manbalarining qiyosiy tahlili hududiy investitsiya portfelining o‘ziga xos tuzilmaviy xususiyatlarini namoyon etadi. Umummakroiqtisodiy tendensiyalardan farqli ravishda, Surxondaryo viloyatida investitsiya jarayonlarining shakllanishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va markazlashgan resurslarning o‘rni respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatiladi. Xususan, markazlashgan investitsiyalar ulushi respublika darajasida 10,6 foizni tashkil etgan bir paytda, viloyatda ushbu ko‘rsatkich 16,4 foizga yetganligi hududda yirik davlat dasturlari va strategik infratuzilma loyihalarining faol amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi.

Investitsiya manbalari tarkibiy qismlari o‘rganilganda, Surxondaryo viloyatida respublika budjeti mablag‘lari (8,7 foiz) va davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar (7,7 foiz) ulushi respublika darajasiga nisbatan (mos ravishda 4,7 foiz va 5,5 foiz) ancha salmoqli ekanligi aniqlandi. Bu holat viloyat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda davlatning rag‘batlantiruvchi roli ustuvor ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, markazlashmagan investitsiyalar tarkibida aholi mablag‘lari ulushining viloyatda 11,6 foizni tashkil etishi (respublika bo‘yicha 6,3 foiz) hududda xususiy tadbirkorlik va yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga yo‘naltirilgan ichki resurslar safarbarligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Biroq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish dinamikasida respublika va hudud o‘rtasida ma’lum tafovut kuzatiladi. Respublika bo‘yicha umumiy investitsiyalar tarkibida xorijiy sarmoyalar ulushi 47,5 foizga yetgan bo‘lsa, Surxondaryo viloyatida bu ko‘rsatkich 28,4 foizni tashkil etmoqda. Mazkur holat viloyatning xorijiy investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish va tashqi kapital oqimini diversifikatsiyalash zarurligini ko‘rsatadi. Korxonalarning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiyalar ulushi ham viloyatda

3 O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi

(10,9 foiz) mamlakat ko'rsatkichiga (15,3 foiz) nisbatan pastroq bo'lib, bu mahalliy xo'jalik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va investitsion faolligini yanada rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi.

Ayni vaqtda tumanlarga jalb etilayotgan investitsiyalarning turli sur'atlarda o'sishi viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi hududiy xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda (2-jadval).

2-jadval

Surxondaryo viloyati hamda shahar (tuman)larining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari (joriy narxlarda, mlrd so'm)[4]

| Viloyat va uning hududlari | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | 7240,6 | 11835,1 | 10068,2 | 12037,8 | 11569,4 | 18307,7 | 16593,1 | 22758,4 |
| Termiz sh. | 1186,9 | 1289,1 | 1222,7 | 1613,3 | 2088,0 | 2420,9 | 1628,3 | 2057,1 |
| tumanlar: | | | | | | | | |
| Oltinsoy | 245,7 | 260,5 | 350,2 | 345,2 | 267,3 | 356,4 | 706,8 | 804,4 |
| Angor | 248,8 | 179,5 | 204,9 | 433,0 | 457,6 | 484,3 | 542,3 | 787,1 |
| Bandixon | x | 42,5 | 67,2 | 193,1 | 225,1 | 296,0 | 288,5 | 766,3 |
| Boysun | 535,9 | 5391,2 | 3283,6 | 1678,3 | 2205,9 | 3472,1 | 5545,2 | 3108,3 |
| Muzrabot | 214,9 | 331,4 | 332,3 | 554,9 | 368,0 | 533,7 | 493,8 | 1070,5 |
| Denov | 396,2 | 563,2 | 647,1 | 1297,9 | 1271,2 | 1151,9 | 994,0 | 1310,0 |
| Jarqo'rg'on | 622,3 | 655,7 | 601,9 | 498,9 | 534,9 | 1126,5 | 752,9 | 1739,7 |
| Qumqo'rg'on | 300,3 | 251,0 | 345,8 | 553,8 | 490,6 | 557,9 | 522,3 | 1203,5 |
| Qiziriq | 391,6 | 203,0 | 176,2 | 350,6 | 320,5 | 407,0 | 296,6 | 990,0 |
| Sariosiyo | 826,7 | 1082,6 | 780,2 | 2179,6 | 1288,7 | 1607,9 | 1252,2 | 2534,4 |
| Termiz | 495,7 | 685,6 | 861,3 | 852,1 | 830,2 | 697,3 | 1605,5 | 2793,9 |
| Uzun | 143,7 | 211,5 | 250,2 | 347,4 | 251,4 | 289,1 | 295,1 | 1130,7 |
| Sherobod | 1430,4 | 403,3 | 651,1 | 749,2 | 553,8 | 4559,3 | 914,6 | 1138,4 |
| Sho'rchi | 201,4 | 223,6 | 293,5 | 390,5 | 416,2 | 347,2 | 755,0 | 1324,1 |
| taqsimlanmaydigan hajm | – | 61,5 | – | – | – | – | – | – |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, birinchidan, tahlil qilinayotgan davr mobaynida Surxondaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2018-yildagi 7240,6 mlrd so'mdan 2025-yilga kelib 22758,4 mlrd so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich qariyb 3,1 baravarlik nominal o'sishni ifodalaydi. Ayniqsa, 2023-yilda investitsiya oqimining keskin o'sishi (18,3 trln so'm) va 2025-yilgi prognoz ko'rsatkichlarining yuqoriligi viloyatda yirik sanoat hamda infratuzilmaviy loyihalarning jadallashganidan dalolat beradi. Umuman olganda, viloyat iqtisodiyotiga yo'naltirilgan kapital mablag'lari dinamikasi o'tgan sakkiz yil davomida ijobiy o'sish tendensiyasini saqlab qolgan.

Ikkinchidan, hududlar kesimidagi tahlil investitsiyalar taqsimotining qutblanganligini (polyarizatsiyasini) ko'rsatmoqda. Viloyat markazi – Termiz shahri barqaror investitsion markaz sifatidagi mavqeini saqlab kelayotgan bo'lsa-da, ayrim yillarda tumanlarda loyihalarga asoslangan "investitsion portlashlar" kuzatilgan. Masalan, Boysun tumanida 2019-yilda qayd etilgan 5391,2 mlrd so'mlik ko'rsatkich (o'sha yili viloyat jami investitsiyalarining 45,5 foizini tashkil etgan) hududda yirik energetika yoki kon-metallurgiya loyihasi amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Shuningdek, Sherobod tumani 2023-yilda (4559,3 mlrd so'm) viloyatning investitsion

4 Surxonstat.uz – Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

drayveriga aylangan bo'lsa, 2025-yilga kelib Termiz tumani (2793,9 mlrd so'm) va Sariosiyo tumani (2534,4 mlrd so'm) eng yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda.

Uchinchidan, investitsion jarayonlarning hududiy dispersiyasi va tarkibiy o'zgarishlari shuni ko'rsatadiki, tumanlar o'rtasidagi farqlanish darajasi yuqori bo'lib qolmoqda. Bandixon, Qiziriq va Uzun kabi tumanlarda investitsiyalar hajmi boshqa hududlarga nisbatan pastroq bo'lsa-da, 2025-yilgi ma'lumotlar ushbu hududlarda ham kapital kiritish sur'atlarining 2–3 baravarga oshganligini ko'rsatmoqda. Xususan, Uzun tumanida 2024-yildagi 295,1 mlrd so'mlik ko'rsatkichning 2025-yilda 1130,7 mlrd so'mga yetishi hududiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan maqsadli investitsiya siyosatining natijasi sifatida baholanishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti ekstensiv o'sish bosqichidan intensiv investitsion rivojlanish bosqichiga o'tgan, deb tavsiflash mumkin.




**3-rasm. Surxondaryo viloyati tuman (shahar)larida 2025-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (foizda)[5]**

3-rasm ma'lumotlariga asosan, birinchidan, 2025-yilgi prognoz ko'rsatkichlari viloyat hududlari kesimida investitsion yuklamaning aholi soniga nisbatan notekis taqsimlanganligini va muayyan "o'sish qutblari" shakllanganligini ko'rsatmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, Termiz tumani (23 foiz) va Boysun tumani (17 foiz) aholi jon boshiga investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha viloyatda mutlaq yetakchilik qilmoqda. Ushbu ikki hudud jami ulushning 40 foizini shakllantirgan. Termiz tumanining yetakchiligi hududda tashqi iqtisodiy faoliyat va logistika markazlari rivojlanganligi bilan izohlansa, Boysun tumanidagi yuqori ko'rsatkich yirik energetika va kon-metallurgiya loyihalarining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan kapital hajmini sezilarli darajada oshirganidan dalolat beradi. Bu holat investitsion siyosatning hududiy-demografik ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori intensivligini ifodalaydi.

Ikkinchidan, investitsiya oqimlarining hududiy dispersiyasi (tarqoqligi) tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatning aksariyat tumanlarida aholi jon boshiga kapital qo'yilmalar darajasi nisbatan pastroq darajada shakllangan. Xususan, Qiziriq (2 foiz), Qumqo'rg'on (3 foiz) va Oltinsoy (3 foiz) tumanlarida investitsiyalar hajmining aholi soniga nisbati eng quyi ko'rsatkichlardan biri sifatida qayd etilgan. Viloyat markazi – Termiz shahri (7 foiz) ulushi o'rtacha ko'rsatkichlar qatoridan joy olgan bo'lib, bu shaharda investitsion faollikning aholi zichligi bilan nisbatan muvozanatlashganligini anglatadi. Hududlararo bunday sezilarli tafovut (2 foizdan 23 foizgacha) viloyat iqtisodiyotida "investitsion polyarizatsiya" (qutblanish) mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlash maqsadida investitsiyalarni aholi soni ko'p bo'lgan, ammo kapital kiritish sur'atlari nisbatan past hududlarga maqsadli yo'naltirish muhimligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

5 Surxonstat.uz – Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Surxondaryo viloyatida agroklasterlarni tashkil etish, kamida 200 gektar yer maydoni ajratilishini ta’minlash, Surxondaryo viloyatida 10 ming gektar maydonda “Yashil makon” barpo etish hamda Surxondaryo hududidan o‘tgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish vazifalari aniq belgilangan [12].

Bundan tashqari, Surxondaryo viloyati hokimining 2026-yil 24-fevraldagi 119-8-0-Q/26-son qarorida 6 ta ilova, 100 ta maqsad va 334 ta banddan iborat amaliy chora-tadbirlar rejasida ham hudud iqtisodiyotining turli sohalariga investitsiyalar kiritish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Surxondaryo viloyati hokimining 2026-yil 24-fevraldagi 119-8-0-Q/26-son qarorida keltirilgan “Investitsiya sohasi” bo‘yicha Surxondaryo viloyatida amalga oshiriladigan islohotlar[13]**

| T/r | Islohot mazmuni | Islohotni amalga oshirish shakli va mexanizmlari | Ijroni boshlash muddati |
|---|---|---|---|
| 1 | Iqtisodiyotga 2 mlrd. dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.<br><br>2-ilova 1-band. | 1. Yuqori qo‘shilgan qiymatga ega jahon bozorlarida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlovchi loyihalarni amalga oshirish uchun jami 2 mlrd. dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish, shundan:-2 mlrd.dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar.<br>2. Tasdiqlangan tarmoq jadvallari asosida raqamli platforma (PMI.miit.uz) orqali oylik monitoringni amalga oshirish. | 2026-yil 1-mart<br><br>2026-yil davomida har oy |
| 2 | Investitsiya g‘oyasidan eksport ko‘rsatkichiga erishish jarayonlarini to‘liq axborot platformada (PMI. miit.uz va eksport.miit.uz) amalga oshirish.<br><br>2-ilova 4-band. | 1. Investitsiya g‘oyasini shakllantirish, kelishish, muzokaralar o‘tkazish, loyiha monitoringi va postmonitirongi bo‘yicha boshqarma va idoralar vazifalarini belgilovchi tartibni tasdiqlash.<br>2. O‘zbekistonda investitsiya faoliyati sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, investorlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, investitsiya loyihalari samarali amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida raqamli platformaga (PMI. miit.uz) barcha davlat interaktiv xizmatlarini integratsiya qilish hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal orqali zarur xizmatlar yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash. | 2026-yil 1 mart |
| 3 | “Invest.gov.uz” platformasini takomillashtirish.<br><br>2-ilova 6-band. | 1. ISSV tasdiqlagan shaklga asosan Brownfield/ Greenfield loyihalarini “Invest.gov.uz” platformasiga kiritishni ta’minlash.<br>2. ISSVga “Invest.gov.uz” platformasini texnik qo‘llab-quvvatlash uchun tizim administratori, axborot xavfsizligi va kontent menejerlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | 2026-yil 1-mart<br><br>2026-yil sentabr |
| 4 | Hududlar salohiyatidan kelib chiqib, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish uchun yangi investitsiya loyiha takliflarini ishlab chiqish.<br><br>6-ilova 109-band. | 1. Har bir hududdagi loyiha ofislari tomonidan hududning iqtisodiy ixtisosligi, tabiiy resurslari, infratuzilmaviy imkoniyatlari va kadrlar salohiyatidan kelib chiqib, istiqbolli investitsiya loyihalarini shakllantirish.<br>2. Loyihalar uchun biznes-rejalar, texnik iqtisodiy asosnomalar va hujjatlar tayyorlash, ularni investorlar uchun tayyor paket holatiga keltirish.<br>3. Yangi loyiha takliflarini mahalliy va xorijiy investorlarga taqdim etish, shu jumladan, xalqaro investitsiya forumlari va platformalarida faol targ‘ib qilish.<br>4. Hududlardagi loyiha ofislari va mahalliy hokimliklar tomonidan aniq investorlar bilan amaliy muzokaralar o‘tkazish, loyihalarni ishga tushirishga qaratilgan manzilli ishlarni boshlash. | 2026-yil davomida |
| 5 | Ichimlik va oqova suv sohasida xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish.<br><br>6-ilova 207-band. | Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi 11 ta loyiha doirasida jami 310 km. tarmoq tortish va 6 ta inshootlarda qurilish va rekonstruksiya ishlarini tashkil etish. | 2026-yil davomida |

Endi esa O'zbekistonning ma'muriy-hududiy birliklari kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni quyidagi diagrammada tasvirlaymiz (4-rasm).




**4-rasm. O'zbekiston ma'muriy-hududiy birliklari kesimida 2024-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (trln so'm)[6]**

O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy tahlili asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning sezilarli darajada farqlanuvchi tavsifga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, investitsiya oqimlarining asosiy qismi Toshkent shahri (91,6 trln so'm) va Toshkent viloyati (73,3 trln so'm) hissasiga to'g'ri kelib, ushbu ikki hudud mamlakatdagi investitsion faollikning yetakchi markazlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Toshkent shahrining yetakchiligi poytaxtda urbanizatsiya jarayonlarining jadalligi, infratuzilmaviy loyihalarning ko'lami va xizmatlar sohasidagi yuqori kapital sig'imi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning ayrim hududlarda yuqori darajada jamlanishi respublikaning boshqa hududlari bilan taqqoslaganda "investitsion polyarizatsiya" (qutblashuv) holatini yuzaga keltirmoqda. Bu esa hududlararo iqtisodiy differensiallashuvning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Investitsiyalar hajmi bo'yicha o'rta darajadagi ko'rsatkichlarni Namangan (54,2 trln so'm), Buxoro (51,7 trln so'm) va Qashqadaryo (35,5 trln so'm) viloyatlari namoyon etmoqda. Ushbu hududlarda investitsiyalarning nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi sanoat klasterlari, xususan, to'qimachilik, neft-gaz va turizm sohalaridagi modernizatsiya loyihalari bilan bog'liqdir. Navoiy viloyatidagi 33,6 trln so'mlik ko'rsatkich esa hududning tog'-kon sanoatidagi yuqori kapital sig'imiga asoslanganligini ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, Namangan va Buxoro viloyatlarining ko'rsatkichlari poytaxt hududidan keyingi "ikkinchi darajali o'sish qutblari" sifatida shakllanib bormoqda va bu hududiy diversifikatsiyani ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma'lumotlar Sirdaryo (11,4 trln so'm), Xorazm (15,6 trln so'm) va Surxondaryo (16,6 trln so'm) viloyatlarida investitsiyalarni jalb qilish ko'rsatkichlari nisbatan pastroq darajada shakllanganligini ko'rsatadi. Eng yuqori ko'rsatkich (Toshkent shahri) bilan eng quyi ko'rsatkich (Sirdaryo viloyati) o'rtasidagi farqning 8 barobardan ortiqni tashkil etishi hududiy iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Investitsiya oqimlarining ayrim hududlarda nisbatan kamroq bo'lishi transport-logistika infratuzilmasi, sanoat bazasi va investitsion muhit xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun investitsiyalarni hududlararo muvozanatli taqsimlash, ayniqsa, Surxondaryo, Xorazm va Sirdaryo kabi viloyatlarning investitsion jozibadorligini yanada oshirishga qaratilgan selektiv strategiyalarni qo'llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida Surxondaryo viloyati aholisi va korxonalarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi ulushining so'nggi yillardagi o'zgarish tendensiyasini ko'rib chiqamiz (5-rasm).

6 www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.




**5-rasm. Surxondaryo viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholi oʻz mablagʻlari ulushi koʻrsatkichining 2000–2024-yillardagi oʻzgarishi[7]**

5-rasm maʼlumotlari tahlili shuni koʻrsatadiki, Surxondaryo viloyatida investitsion faoliyat uzoq vaqt davomida asosan korxonalarning ichki moliyaviy imkoniyatlari hisobiga shakllangan. 2000–2016-yillar oraligʻida oʻz mablagʻlari ulushi koʻrsatkichi tez-tez oʻzgarib turganiga qaramay, nisbatan yuqori darajada (oʻrtacha 55–65 foiz) saqlanib qolgan. Ayniqsa, 2004-yilda bu koʻrsatkich eng yuqori nuqtaga, yaʼni 75,4 foizga yetganligini koʻrish mumkin. Ushbu davrdagi holat shundan dalolat beradiki, viloyatdagi korxonalar yangi loyihalarni amalga oshirishda bank kreditlari yoki chet el sarmoyasiga nisbatan koʻproq oʻzlarining jamgʻarilgan moliyaviy resurslariga tayanganlar. 2011–2016-yillardagi barqarorlik esa xoʻjalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy jihatdan barqaror faoliyat yuritganligini va oʻzini oʻzi mablagʻ bilan taʼminlash imkoniyatlariga ega boʻlganligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

2017-yildan boshlab korxona va aholi mablagʻlari ulushining sezilarli darajada kamayishi (50,0 foizdan 2019-yildagi eng quyi koʻrsatkich – 15,7 foizgacha) viloyat iqtisodiyotida investitsiya manbalari tarkibida muhim tarkibiy oʻzgarishlar yuz berganligini koʻrsatadi. Oʻz mablagʻlari ulushining bunday pasayishi korxonalar mablagʻlarining kamayganligi bilan emas, balki viloyatda yirik va kapital sigʻimi yuqori boʻlgan loyihalarning amalga oshirilishi natijasida ularni moliyalashtirishda qoʻshimcha moliyaviy manbalarga ehtiyoj ortganligi bilan izohlanadi. Natijada bank kreditlari va toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar oqimi jadallashgan. 2020–2024-yillardagi holat (15,7 foizdan 25,3 foizgacha) oʻz mablagʻlari ulushining maʼlum darajada tiklanganligini koʻrsatsa-da, umumiy koʻrsatkich avvalgi yillardagiga nisbatan pastroq darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa viloyatda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibining diversifikatsiyalashganligini hamda tashqi investitsiyalar va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari kengayganligini koʻrsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiyalar yalpi ichki mahsulot oʻsishini taʼminlash, korxonalarning texnologik yangilanishini ragʻbatlantirish va eksport salohiyatini kuchaytirish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, import oʻrnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda aholi turmush farovonligini oshirishga sezilarli hissa qoʻshadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Abduraxmonov P.M. Hududlarda investitsion jozibadorlikni oshirishning oʻziga xos xususiyatlari // “Yangilanayotgan Oʻzbekistonda ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishning falsafiy muammolari” mavzusidagi vazirlik miqyosida oʻtkazilgan onlayn ilmiy-amaliy anjuman maqolalari toʻplami. – Termiz: TerDU, 2020. – B. 67–72.

7 www.stat.uz - Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi sayti maʼlumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

2. Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. Инвестиции / Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 1999. – XXI, 979 с.
3. Ример М.И., Касатов А.Д., Матиенко Н.М. Экономическая оценка инвестиций. – СПб.: Питер, 2008. – 480 с.
4. Макконнел К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: в 2 т. / Пер. с англ. 13-го изд. – Т. 1. – М.: ИНФРА-М, 2001. – 974 с.
5. Райзберг Б.А., Лазовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2001. – С. 145–146.
6. Kemeny T. Does Foreign Direct Investment Drive Technological Upgrading? // World Development. – 2010. – Vol. 38, No. 11. – P. 1543–1554.
7. Гитман Л.Дж., Джонк М.Д. Основы инвестирования. – М.: Дело, 2007. – С. 10.
8. Ғофуров Ш.Р., Гугнин В.И., Омонов С.Н. Язык бизнеса. Термины / Под общей редакцией д.э.н. В.А. Чжена. – Т.: Шарк, 1995. – С. 171.
9. Басовский Л.Е., Басовская Е.Н. Экономическая оценка инвестиций: учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2014. – 241 с.
10. Ҳайдаров Н.Х. Тўғридан-тўғри инвестициялар имкониятлари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. Илмий электрон журнал. – 2011. – № 1, сентябрь.
11. G‘ozibekov D.G‘., Qoraliyev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. – T.: Moliya, 1993. – 46 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni: https://www.lex.uz/uz/docs/-8050787

Surxondaryo viloyati hokimining 2026-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini samarali tashkil etish haqida”gi 119-8-0-Q/26-son qarori.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/3**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz